

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIIY MUAMMOLARINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE NOOSPHERE AND THE PARADIGM OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Tangirov Nizom Abdurahmonovich

Associate Professor of the Department of Philosophy, National University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

E-mail: tangirov_n@nuu.uz

Abstract. This article examines the philosophical and methodological foundations of the noosphere and the paradigm of sustainable development. It should be taken into account that the formation of noosphere theories was significantly influenced by the socio-political and economic conditions of the period, as well as the prevailing worldview and the level of development of natural sciences. Within this context, it is necessary to systematically study the paradigm of sustainable development.

Keywords: noosphere, biosphere, civilization, sustainable development, consciousness, mind, labor, technology, science, moral-global responsibility.

NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Tangirov Nizom Abduraxmonovich

O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada noosfera va barqaror rivojlanish paradigmasining falsafiy-metodologik asoslari haqida so'z boradi. Shu o'rinda noosfera to'g'risidagi ta'limotlarning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, albatta o'zining muhim ta'sirini o'tkazganligi, ushbu konsepsiyalarning vujudga kelishida o'sha davr dunyoqarashi va tabiiy-ilmiy fanlar rivoji ham alohida o'rin tutganligini hisobga olishimiz lozim. Mazkur masalalar doirasida barqaror rivojlanish paradigmasini tizimli ravishda tadqiq qilish lozim.

Kalit so'zlar: noosfera, biosfera, sivilizatsiya, barqaror rivojlanish, ong, aql, mehnat, texnika, ilm-fan, axloqiy-global mas'uliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N23>

Kirish. Noosferani vujudga kelishi Homo sapiens miya faoliyati natijasi sifatida unda xotira, rivojlangan nutq va mehnat bilan bog'liq faoliyat jarayonida ijtimoiylashib bordi. Inson va insoniyat jamiyati yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan biosfera qonuniyatli suratda Noosferaga o'tadi, chunki, insoniyat tabiat qonunlarini egallab va texnikani rivojlantirib, tabiatni o'z ehtiyojlariga muvofiq ravishda tobora ko'proq o'zlashtirib boradi. Noosfera insonning kosmosga chiqishi va planetaning bag'riga kirib borishi hisobiga uzluksiz kengayishga moyilligi ilk fan kurtaklarining paydo bo'lishi va faoliyat sohasi sifatida ajralib chiqishi va fanning texnikaga tatbiq etilishi bilan bog'liq. Shu o'rinda N.N.Moiseev "Noosfera tushunchasida tabiat taraqqiyoti mantig'ini, Yerning ustki qobig'ida uning kelajagini ko'rish mumkin"

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. «Noosfera» tushunchasi grek tilidan olingan — *noos* “aql” degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib etimologik jihatdan *noosfera* – aql doirasiga oid tushunchadir. Bu tushuncha fransuz faylasufi Eduard Lerua (1870-1954) va Per Teyyar de Sharden (1881-1955)lar tomonidan XX asrning 20–yillarida taklif etilgan va ishlab chiqilgan. 1927-yili bir vaqtning o’zida Leruaning «Mafkuraviy talab va evolyutsiya fakti» va Shardenning «Ilohiy muhit» nomli kitoblari nashr etildi, aynan shu asarlarda noosfera falsafiy ta’limotiga asos solindi. Uning mohiyatini Lerua shunday talqin etdi: «Ong borgan sari erkin va toza bo’la boradi va oliy darajada shakllangan ong yaratiladi – ruhiyat (duxovnost) shunchalik oliy darajaga yetadiki unda kapalak qo’g’irchoqdan ajralishga intilgandek noosfera ham biosferadan ajralishga intiladi»[1].

Boshqa so’z bilan aytganda, insoniyat evolyutsiyasi ma’lum bir vaqtgacha biosfera doirasida amalga oshadi. Lerua biosfera va noosferalarni xitoy devori bilan bir-biridan ajratmaydi: “ko’pchilik xollarda ular bir –biriga aralashib ketadi, ikkinchisi birinchisining qayta yaralganidir»[2]. Lekin sekin-asta shunday holat vujudga keladiki, insonning to’xtovsiz o’zgaruvchi rivojlanuvchi ongi chegarali va cheklangan biosferaga sig’may qoladi. U «insoniy, tafakkur qiluvchi, o’z mohiyatiga ko’ra fikr” ning yangi bir holatini noosferani vujudga keltiradi.

Teyyar de Sharden noosfera ta’limotini yanada rivojlantirdi. Uni aytishicha, taraqqiyot biosfera doirasi bilangina chegaralanmaydi. Sharden postulatlaridan biri shuki, dunyoda hamma narsa uzluksiz ravishda murakkablashadi va rivojlanadi. U dunyoning uzluksiz taraqqiyotining to’rt bosqichini ishlab chiqdi: a) hayotdan avval; b) hayot; v) fikr; g) hayotdan oliylik[3]. «Fikr» stadiyasi inson paydo bo’lishi bilan xarakterlanadi, u psixik va ruhiy energiyani quyuqlashtiradi, jamlaydi va noosferani yaratadi. Sharden konsepsiyasining xususiyati shundan iboratki, u ilmiy tafakkurni diniy e’tiqod bilan sintez qilishga harakat qilgan. Aynan shundan kelib chiqqan xolda to’rtinchi stadiya («hayotdan oliylik») kelib chiqqan, unda inson ongidan oliyroq substansiya, ya’ni xudo tushunilgan. Yaratuvchi deb «Omega nuqtasi» — Gegelning absolyut haqiqat haqidagi g’oyasiga yaqin bo’lgan tushuncha e’lon qilinadi. Sharden fikricha, barcha narsalar shunchaki taraqqiy etmaydi, balki teleologik, ya’ni ma’lum bir maqsad, ideal tomon intilish orqali rivojlanadi. Shunday qilib, noosferaning teyyarcha konsepsiyasini to’liq ravishda teleologik konsepsiya deyish mumkin. Noosfera ta’limoti rus faylasufi V.I.Vernadskiy (1863-1945) tadqiqotlarida yana ham rivojlantirildi va mukammallashtirildi. 1925-yilda (ya’ni E.Lerua va P.Teyyar de Shardenlarning tadqiqotlari nashr etilmasdan avval) «Insonning avtotrofligi» nomli maqolani e’lon qiladi. Vernadskiy uchun noosfera — bu faqat inson ongi, inson tafakkuriga bog’liq bo’lmasdan, tabiiy jarayonlarning hayotda o’z-o’zidan va aniq ravishda ro’y berishi bilan bog’liqdir[4], «bizning planetamizdagi yangi geologik hodisadir»[5].

Noosfera konsepsiyasi taraqqiyotining muhim ilmiy-falsafiy natijasi sifatida tabiat va jamiyatning koevolyusiya (hamkorlikda, parallel, o’zaro bog’liqlikda rivojlanish) nazariyasining shakllanganini eslab o’tish mumkin. Bu ikki yirik tizimning bir-biriga qarshi turishi va kurashi emas, balki ularning uzviy birligi insoniyatning keyingi taraqqiyotini ta’minlashi mumkin. “Noosferaviy bilim”, “noosferaviy dunyoqarash”, “noosferaviy faoliyat” tushunchalari noosfera konsepsiyasining ijtimoiy deterministik jihatlari ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining global darajasiga javob beruvchi dunyoqarash tizimlari va ma’naviy jarayonlarni falsafiy anglash zaruriyati bilan bog’liqdir. V.I.Vernadskiy, biosferaning

noosferaga o'tishi to'g'risidagi ta'limotga asos solib, ilmiy fikr, insoniyat ongi, planetar aqllarning Yerning geologik tarixidagi rolini asoslab berishga imkon yaratuvchi yangi falsafiy va umumilmiy yondashuvlarni kashf etdi. Lekin ensiklopedist-olimning g'oyalari o'z davridan yarim asrga o'zib ketgan edi, hozirgi paytda bu g'oyalar zamonaviy fan yutuqlari, shuningdek postmodern davri falsafiy fikrini hisobga olgan holda, rivojlantirilishi kerak.

Muhokama va natijalar. Hozirgi zamon ijtimoiy pessimizmi va optimizmi inson aqlining imkoniyatlari, insoniyat tarixiy rivojlanishni tabiat bilan uyg'un munosabatlar qurish yo'lga, ekologik yo'lga yo'naltirib yuborishi imkoniyatlari haqidagi tasavvurlar bilan bevosita bog'liqdir, bu esa insonning yangi turining — “noosferaviy insonning” (yoki “Noosfera odami”) paydo bo'lishidan darak beradi. Insonning mislsiz qudrati tufayli yangi xususiyatlarga (fazilatlariga) ega bo'lib borayotgan ongning kuchayib borishini tadqiq etish jamiyat hayotining falsafiy, ijtimoiy-madaniy va ta'lim doiralari uchun hal etilishi kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.

“Noosfera” tushunchasining keng umummadaniy muomalaga kirib borishi uni terminologik jihatdan yanada aniqlashtirish zaruriyati tug'ilgan. Bunday formal mantiqqa oid ishning ikki yo'lini ta'kidlab o'tamiz: birinchidan, “noosfera” atamasining falsafiy adabiyotda mavjud bo'lgan mazmun va ma'nolarini anglab yetish; ikkinchidan, atamalar tizimini belgilovchi xususiy so'z yaratish (ijod etish) jarayoni. Bunda “noosfera” atamasi muqarrar ravishda “Noosfera” degan nom bilan tutashadi, o'z navbatida, ushbu ikki “bir-biriga qarama-qarshi” bo'lgan tushunchalar yordamida tashkil bo'lgan semantik makonda terminologik to'r quriladi: “noosferaviy g'oya”, “Noosfera g'oyasi”, “noosferaviy reallik”, “noosferaviy qonun”, “noosferaviy tizim”, “noosferaviy an'ana”, “noosferaviy imperativ”, “noosferaviy Universum” va boshqalar [2].

Hozirgi zamon noosferashunosligi (noosferologiya) oldida keng miqyosli masala turibdi: barcha mumkin bo'lgan tarixiy, praksiologik va gnoseologik cheklanganliklarni (kamchiliklarni) hisobga olgan holda, V.I. Vernadskiyning biosferaning noosferaga o'tishi to'g'risidagi ta'limotini keng ko'lamda rivojlantirish, uni insonning kosmoplanetar (noosferaviy) reallik sifatida namoyon bo'luvchi olamga munosabatining vositasi (instrumenti) qilish. Noosferaviy yondashuvlarning kengligi falsafiy, tarixiy, madaniyatshunoslikka oid, ma'naviy dominantalarni o'zgartirib yuboradi, ta'limning yangi paradigmasining va unga mos ravishda yangi “insoniy sifatning” shakllanishiga yordam beradi.

Ijtimoiy ongning noosfera muammosiga xolisona, to'g'ri munosabatda bo'lishiga erishish – rivojlanishi jarayonida boshi berk ko'chalarni bartaraf qilishga harakat qilayotgan hozirgi zamon texnogen sivilizatsiyasidagi jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishining zamonaviy darajasiga muvofiq bo'lgan dunyoqarashga oid izlanishlar yo'nalishidagi asosiy vazifalardan biridir.

Noosfera rivojlanishi endilikda ijtimoiy tizimdan tabiiy tizimga ko'chadi va bunda noosferaning tabiiy ekosistemalarni ta'minlanishda koevolyutsiya nazariyasi ilgari surilmoqda. Hozirda progressiv rivojlanish falsafasi barqarorlik uyg'unlik falsafasiga o'tmoqda. Insoniyat o'z aql-zakovati bilan turli darajadagi tizimlarni muvozanatga keltirish, tabiat va jamiyatni uyg'unlashtirish yo'llarini izlaydi. Butun biosferani yoki uning ayrim tarkibiy qismlarini uyg'unlashtirish (bunda ichki, tabiiy uyg'unlik nazarda tutiladi) va tabiiy omillar va texnikaviy omillar muvozanatini saqlash nazarda tutilmoqda. Bioevolyutsiya bilan texnoevolyutsiya

tezligi o'rtasidagi farq katta (taxminan 30 baravar) bo'lganida tabiat va jamiyatning koevolutsiyasi to'g'risida gap yuritish noo'rin [3].

Ilmiy tafakkur masalasi bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib, uni tahlil qilish hozirgi davr talabiga aylanib bormoqda. Bunda dunyoda yechimini topmagan ekologik muammolar xavfi kuchayishiga qarab odamlar tang vaziyatdan chiqish yo'llari haqida ko'proq bosh qotira boshladilar, uni bartaraf etish yo'lida muayyan qadamlar tashlashga harakat qildilar. Shu munosabat bilan to'plangan tajribadan, o'zgargan sharoitlardan o'z vaqtida chiqarilgan to'g'ri xulosalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Noosferani biosferadan ajraladigan, mustaqil mavjud bo'lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech qanday aloqasi bo'lmagan sof nazariy konstruktsiya sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o'tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunish lozim.

Demak biosfera va noosferaning sof geografik parametrlari mos kelmaydi. V.I. Vernadskiy, noosfera haqida gapirganda, insoniyat dahshatli jahon urushini boshdan kechirib, ma'naviy jihatdan o'zgardi, ilmiy fikrning buyuk ahamiyatini tushunib yetdi, ilmiy g'oya va yuksak axloqiy tamoyillarga muvofiq ish tutadi, deb umid qilgan edi. Ma'naviy va ijtimoiy potensialni (salohiyatni) rivojlantirish va yuksaltirishsiz noosfera loyihasini amalga oshirib bo'lmaydi. Ana shuning uchun noosfera konsepsiyasini jamiyatda ijobiy ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish bilan bog'lash lozim. Bugungi kunda, XXI asr boshida umumbashariy noosfera g'oyasi, insoniyatning umumiy aqli bilan boshqariladigan, kelajakdagi ijtimoiy-tabiiy uyg'unlikning ideal loyihasi bo'lishi mumkin va bo'lishi kerak [4].

Inson raketalar, sun'iy yo'ldoshlar, orbital stansiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, biroq, shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o'zining mazkur harakati bilan biosfera chegaralari – uning yangi sifati chegaralarini ham kengaytiradi. Ayni vaqtda, jamiyat tabiat bilan o'zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitib «ijtimoiylashtiradi». Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq «tortiladi», uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy jabhaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda tabiatning bir qismi bo'lgan inson mazkur jarayonni to'xtata olmaydi. Zero, buning aksi inson o'z ijtimoiy borlig'ini, binobarin, insoniy borlig'ini ham to'xtatishini anglatgan bo'lar edi.

Shunday qilib, biosferaning noosferaga o'tishi avvalambor inson o'zining o'zgartiruvchi faoliyatida “Ziyon yetkazma” degan qoidaga so'zsiz amal qilib, biosferaning ham, o'z-o'zining ham keyingi evolyutsiyasi uchun butun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga majbur ekanligini anglatadi. Bunday vazifani hal qilish uchun jamiyat hamda «jamiyat-tabiat» sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Aslida, mazkur bilimlar falsafiy, tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarning mazmunini tashkil etadi. Bunda falsafaning aksiologik jihatini — qadriyatlar va axloqiy ideallarni belgilash, axloqiy qoidalar va tamoyillarni ta'riflash qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi [5].

Insoniyat jiddiy ekologik tangliklar xavfi bilan to'qnash kelgach, odamlar xulq-atvorining axloqiy tomoni ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi va endilikda «jamiyat-tabiat» tizimida muammolar keskinlashuvidan oldingiga qaraganda o'zgacha ma'noga ega, zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, inson o'z faoliyatida asosiy e'tiborni biosferaga qaratishi lozim. Yuzaga kelgan vaziyatda bu odamlarning yangicha axloqqa asoslangan tegishli xulq-atvorini taqozo etuvchi obyektiv zaruriyatdir. Mazkur axloq insoniyat bu sohada erishgan eng sara

yutuqlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki hozirgi hayotning eng muhim muammolarini ham hisobga olishi lozim.

Ijtimoiy hayotga ham, inson mavjudligining tabiiy sharoitlariga ham tegishli bo'lgan bu axloqiy qonunga o'z holicha rioya qilish ekologiya barcha muammolarini bartaraf etishni uzil-kesil kafolatlovchi birdan-bir va shak-shubhasiz talab hisoblanmaydi. Ammo har bir inson va butun jahon hamjamiyati tomonidan odamlarning tabiat bilan munosabatlarida asos qilib olingan taqdirda, u muqarrar tarzda turli mamlakatlar va xalqlarni shunday bir holatga keltiradiki, ular o'zining tabiatni o'zgartiruvchi siyosatini mazkur qonunga muvofiq qayta tuzishga majbur bo'ladi, shu tariqa jahon hamjamiyatiga yanada faolroq birlashish yo'lidagi ekologik g'ov-to'siqlarni bartaraf etadi. Aks holda nafaqat noosferaga erishish, balki umuminsoniy muammolarni hal qilish ham mumkin emas. Darhaqiqat, 2015-yil sentyabrda jahon yetakchilari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbarligi ostida qabul qilingan 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish sohasida kun tartibi kuchga kirdi. Yangi kun tartibi – bu mamlakatlarni barqaror rivojlanishning 17 maqsadiga erishish ustidan ishni boshlashga chaqirishdir. Ushbu muammolarni hal qilish borasida, O'zbekiston Respublikasi 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo'ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo'llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo'yicha kompleks ishlarni olib borishini ma'lum qildi. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qarorida[6] belgilangan chora-tadbirlar rejasi ham ahamiyatlidir. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-sonli qaroriga 1-ilovada 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar va yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Mazkur Maqsad va vazifalarning tartib raqamlari 2015-yil sentyabr oyida BMT sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish global maqsadlari tartib raqamlariga to'la mos keladi.

Shu o'rinda, insoniyat o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashtirish jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni yengib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. Bunday birlashuvga faqat umuminsoniy qadriyatlarini e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.[6]

Xulosa. Shu jihatdan, Noosfera insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muayyan zaruriy bosqichi bo'lib, unda inson va tabiat dialogi yangicha mazmun kasb etadi va barqaror rivojlanish g'oyasiga muvofiqligi taqazolanadigan fenomen, deb ta'kidlab ko'rsatishimiz o'rinlidir. Noosfera konsepsiyasi doirasida barqaror rivojlanish paradigmasini tizimli ravishda tadqiq qilish lozim. Shu o'rinda noosfera tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorligi va birligi sifatidagi yaxlit hodisa hisoblanadi. Darhaqiqat, Noosfera o'ziga xos ochiq sistema sifatida quyidagi tarkibiy elementlardan iborat: sotsiosfera, etnosfera, texnosfera, infosfera; noosfera, barqaror rivojlanish – jamiyat, tabiat va inson tizimida o'zaro sabab-oqibat va zaruriyat orqali amalga oshishi cheklanmasdan, balki, bu o'rinda bifurkatsiya va xaos jarayonlarini ham hisobga olishni talab etadi. Bunga hozirgi ijtimoiy-ekologik inqiroz holati misol bo'la oladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Исторически процесс:диалектика современное эпохи. – Москва. 1987. –Б. 415.
2. Тейер де Шарден П.. Феномен человека. – М., 1965. – С. 43
3. Вернадский В.И. Живое существо. – М., 1978. –С.46.
4. Вернадский В.И. Химическое строение земли и ее окружение. – М., 1965. –С.328.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktyabrda "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/777/1620-son.
6. Shermuhamedova N.A. Falsafa. – T., "Idris Abdurauf nasr", 2021. – 653 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).